



**OILA HUQUQIDAGI ALIMENT VA TA'MINOT MAJBURIYATLARIGA
NISBATAN ILMIY NAZARIYALAR VA YONDASHUVLAR TAHLILI**

<https://doi.org/10.70728/a.series.v08.i03.132>

Farg'ona davlat universiteti

Huquqshunoslik fakulteti

Maxsus huquqiy fanlar kafedrasi dotsenti, y.f.f.d (PhD)

M.S.Usmonova

Annotatsiya. Mazkur maqolada oila huquqida aliment va ta'minot majburiyatlarining huquqiy tabiati, ularning o'zaro nisbatiga oid ilmiy yondashuvlar hamda nazariy qarashlar tahlil qilinadi. Aliment va ta'minot majburiyatlarining ijtimoiy-huquqiy ahamiyati, ularning oila a'zolari o'rtasidagi moddiy munosabatlarni tartibga solishdagi o'rni ochib beriladi. Shuningdek, aliment majburiyatining vujudga kelish asoslari, uning majburiy xarakteri hamda ta'minot majburiyatidan farqlovchi mezonlari ilmiy manbalar va normativ-huquqiy hujjatlar asosida yoritiladi. Maqolada aliment majburiyati va ta'minot majburiyati tushunchalarini farqlash zarurati asoslab berilib, ularning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: aliment majburiyati, ta'minot majburiyati, oila huquqi, moddiy ta'minot, oila a'zolari, huquqiy munosabat, ijtimoiy himoya.

Аннотация. В данной статье анализируются правовая природа алиментных и обеспечительных обязательств в семейном праве, а также научные подходы к соотношению данных понятий. Раскрывается социально-правовое значение алиментных обязательств и их роль в регулировании имущественных отношений между членами семьи. Особое внимание уделяется основаниям возникновения алиментных обязательств, их императивному характеру и критериям разграничения алиментных и обеспечительных обязательств. На основе научной литературы и норм семейного законодательства обосновывается необходимость четкого разграничения данных правовых категорий.

Ключевые слова: алиментные обязательства, обязательства по содержанию, семейное право, материальное обеспечение, члены семьи, правовые отношения, социальная защита.

Abstract. This article analyzes the legal nature of alimony and maintenance obligations in family law, as well as scientific approaches to the correlation between these concepts. The study reveals the social and legal significance of alimony obligations and their role in regulating financial relations among family members. Particular attention is paid to the grounds for the emergence of alimony obligations, their mandatory character, and the criteria distinguishing alimony obligations from broader maintenance obligations. Based on legal

doctrine and family legislation, the necessity of clearly differentiating these legal categories is substantiated.

Keywords: alimony obligation, maintenance obligation, family law, financial support, family members, legal relations, social protection.

Kirish. Oila huquqida aliment va ta‘minot majburiyatlari shaxslar o‘rtasidagi qon-qarindoshlik, nikoh va oilaviy birdamlikka asoslangan moddiy majburiyatlarning alohida ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu majburiyatlar mazmunan ijtimoiy himoya vazifasini bajarib, oilaning zaif a‘zolari — voyaga yetmaganlar, mehnatga layoqatsiz shaxslar hamda moddiy yordamga muhtoj ota-onalarning munosib hayot kechirishini ta‘minlashga qaratilgan. Shu jihatdan aliment va ta‘minot majburiyatlari faqat xususiy manfaatlarni emas, balki davlatning ijtimoiy siyosati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan ommaviy ahamiyatga ega munosabatlar sifatida baholanadi.

Ilmiy adabiyotlarda aliment va ta‘minot tushunchalarining o‘zaro nisbatiga doir yondashuvlar bir xil emas. Ayrim mualliflar ushbu tushunchalarni aynanlashtirgan holda talqin etsa, boshqa olimlar ta‘minotni kengroq huquqiy kategoriya sifatida ko‘rib, alimentni uning majburiy, pullik va muntazam shakli deb hisoblaydilar. Bunday yondashuvga ko‘ra, ta‘minot nafaqat pul mablag‘lari orqali, balki kelishuv asosida natura shaklida ham amalga oshirilishi mumkin bo‘lib, aliment esa faqat pul ko‘rinishida ifodalanadigan qat‘iy majburiyatdir. Mazkur farqlash aliment majburiyatlarining huquqiy tabiatini aniqlash va ularni qo‘llash amaliyotini to‘g‘ri yo‘naltirishda muhim nazariy ahamiyat kasb etadi.

F.M. Otaxo‘jayev va Sh.R. Yuldashevalarning ta‘kidlashicha, aliment majburiyati qonunchilikda belgilangan yuridik faktlar yuzaga kelishi bilan vujudga keladigan huquqiy munosabat hisoblanadi. Mazkur munosabatlar taraflarning o‘zaro kelishuvi yoki sudning hal qiluv qarori mavjud bo‘lgan hollarda shakllanib, bunda ayrim oila a‘zolari boshqa oila a‘zolariga aliment to‘lash majburiyatini oladi, aliment oluvchi esa uni talab qilish huquqiga ega bo‘ladi¹¹.

Metodologiya. Mualliflar aliment majburiyatining vujudga kelishini subyektlarning xohish-irodasigagina emas, balki qonunchilikda belgilangan aniq yuridik holatlar yuzaga kelishi bilan izohlash orqali ushbu majburiyatning imperativ xarakterini asoslab beradi.

Mazkur yondashuvdan kelib chiqib, aliment munosabatlari faqatgina taraflarning o‘zaro kelishuvi mavjud bo‘lgan hollardagina emas, balki sudning hal qiluv qarori asosida ham shakllanishi mumkinligi e‘tirof etiladi. Bu esa aliment majburiyatining ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan, davlat tomonidan alohida muhofaza qilinadigan huquqiy institut ekanligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, aliment munosabatlarida majburiyat yuklatilayotgan shaxsning roziligi ikkilamchi ahamiyat kasb etib, ustuvor jihat sifatida aliment oluvchining qonun bilan kafolatlangan manfaatlari ilgari suriladi.

Shu bilan birga, mualliflar aliment munosabatlarining ikki tomonlama huquq va majburiyatlar tizimi ekanligini asoslab, aliment to‘lovchi shaxs zimmasida muayyan moliyaviy majburiyat vujudga kelishini, aliment oluvchi esa ushbu majburiyatni amalga

¹¹ Otaxo‘jayev F.M., Yuldasheva Sh.R. Oila huquqi . Toshkent 2013. 147 b

o‘shirishni talab qilish huquqiga ega bo‘lishini ta’kidlaydi. Bu holat aliment majburiyatining faqat axloqiy yoki ijtimoiy majburiyat emas, balki aniq huquqiy mexanizmlar bilan ta’minlangan majburiy huquqiy munosabat ekanligini ko‘rsatadi.

Mualliflarning ushbu qarashlari aliment majburiyatini oila huquqida mustaqil institut sifatida chuqurroq anglashga xizmat qilib, uni huquqni qo‘llash amaliyotida to‘g‘ri talqin qilish, shuningdek, aliment munosabatlarini sud orqali ta’minlashning nazariy asoslarini mustahkamlashga yordam beradi.

Mazkur yondashuv aliment majburiyatining **huquqiy mexanizmlar bilan ta’minlanganligini** ochib bersa-da, “moddiy ta’minot” va “aliment majburiyati” tushunchalari o‘rtasidagi chegarani yetarlicha aniqlashtirmaydi. Natijada aliment majburiyati ba’zan kengroq ta’minot munosabatlari bilan qisman qorishib ketish xavfi mavjud.

G.S.Djumagazievaning fikricha¹², aliment majburiyati huquqiy munosabatlarini oila a’zolaridan birining boshqasini moddiy ta’minot majburiyati bilan aynanlashtirib bo‘lmaydi. Uning yondashuviga ko‘ra, ta’minot majburiyati tushunchasi mazmunan kengroq bo‘lib, u moddiy yordamning turli shakllarini qamrab oladi, aliment majburiyati esa formal aniqlikka ega bo‘lgan, majburiy va faqat pul shaklida ifodalanadigan huquqiy majburiyat hisoblanadi. Aliment majburiyati sud qarori yoki taraflar o‘rtasida tuzilgan kelishuv asosida vujudga keladi, ta’minot majburiyati esa majburiy bo‘lmagan, kelishuvga asoslangan yoki boshqa huquqiy shakllarda amalga oshirilishi mumkin. Shu bois, aliment majburiyati va ta’minot majburiyati turli huquqiy hodisalar sifatida baholanib, ularni bir-biridan qat’iy farqlash zarur.

G.S. Djumagazieva tomonidan ilgari surilgan konseptual yondashuv aliment majburiyatini oila-huquqiy munosabatlar tizimida mustaqil va maxsus huquqiy hodisa sifatida ajratib ko‘rsatish bilan e’tiborga loyiqdir. Muallif aliment majburiyatini oila a’zolaridan birining boshqasini moddiy ta’minlash majburiyati bilan aynanlashtirish mumkin emasligini asoslab, ushbu ikki tushuncha o‘rtasidagi nazariy va amaliy farqlarni aniqlab beradi.

Muallif tomonidan ilgari surilgan ushbu yondashuv aliment majburiyatlari institutini noto‘g‘ri talqin qilishning oldini olish, aliment to‘lashga oid talablarni aniqlik bilan belgilash hamda huquqni qo‘llash amaliyotida yuzaga keladigan chalkashliklarni bartaraf etish nuqtai nazaridan muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Shu bois, aliment majburiyati va ta’minot majburiyatini turli huquqiy hodisalar sifatida baholab, ularni qat’iy farqlash zarurligi haqidagi xulosa o‘zini oqlaydi.

G.S.Djumagazieva tomonidan ilgari surilgan yondashuvga qo‘shilgan holda, aliment majburiyati va ta’minot majburiyati huquqiy tabiatiga ko‘ra turli huquqiy hodisalar ekanligini ta’kidlash lozim. Ta’minot majburiyati mazmunan kengroq tushuncha bo‘lib, moddiy yordamning turli shakllarini qamrab olsa, aliment majburiyati formal aniqlikka ega bo‘lgan, majburiy va faqat pul shaklida ifodalanadigan huquqiy majburiyat sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois, ushbu majburiyatlarni aynanlashtirish ularning huquqiy mohiyatini to‘liq ochib bermaydi va amaliyotda noto‘g‘ri talqinlarga olib kelishi mumkin.

¹² Djumagazieva G.S.” ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ЗАЩИТЫ ПРАВ И ИНТЕРЕСОВ СТОРОН В АЛИМЕНТНЫХ ОБЯЗАТЕЛЬСТВАХ” // ВОПРОСЫ ЧАСТНОПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ// DOI: <https://doi.org/10.15688/lc.jvolsu.2020.4.15> 118 b

A.M. Nechaeva¹³ ham ushbu yondashuvga yaqin pozitsiyani ilgari surib, ta‘minot majburiyatini ijtimoiy-axloqiy hamda huquqiy elementlarni o‘zida mujassam etgan mazmunan keng tushuncha sifatida talqin etadi, aliment majburiyatini esa faqat qonunchilikda nazarda tutilgan asoslar mavjud bo‘lganda va sud himoyasi bilan ta‘minlangan hollardagina vujudga keladigan, qat‘iy normativ chegaralarga ega bo‘lgan tor huquqiy institut sifatida baholaydi.

L.V. Tixomirova va M.Yu. Tixomirovlarning fikricha¹⁴, alimentlar — bu mavjud nikoh va boshqa oilaviy munosabatlar tufayli ayrim shaxslar tomonidan boshqa shaxslarga qonunga muvofiq taqdim etilishi lozim bo‘lgan ta‘minot uchun moddiy mablag‘lar bo‘lib, masalan, ota-onalar tomonidan farzandlarga, farzandlar tomonidan ota-onalarga, er-xotinlardan biri tomonidan boshqasiga, shuningdek, oilaning ayrim a‘zolari tomonidan muhtoj va mehnatga layoqatsiz boshqa oila a‘zolariga beriladi.

Natijalar

Mualliflar alimentlarni mavjud nikoh va boshqa oilaviy munosabatlar natijasida ayrim shaxslar tomonidan boshqa shaxslarga taqdim etilishi lozim bo‘lgan moddiy mablag‘lar sifatida talqin etib, ushbu yondashuv orqali aliment subyektlari doirasini keng ochib berish hamda aliment institutining ijtimoiy himoya funksiyasini yoritishga erishgan bo‘lsalar-da, mazkur ta‘rifda aliment majburiyatining majburiylik darajasi, uning huquqiy vujudga kelish asoslari va ta‘minot majburiyatidan farqlovchi mezonlar yetarli darajada aniqlashtirilmaganligi sababli u ko‘proq umumlashtiruvchi va ijtimoiy yo‘naltirilgan tavsif bilan cheklanadi.

O‘zbekiston Respublikasi oila qonunchiligini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, aliment huquqiy munosabatlari o‘zining huquqiy tabiatiga ko‘ra majburiyatli munosabatlar sifatida namoyon bo‘ladi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksida aliment munosabatlari alohida bo‘limda tartibga solinib, ular doirasida aliment to‘lovchi shaxs zimmasiga aniq mazmundagi majburiyat, aliment oluvchi shaxs foydasiga esa tegishli subyektiv huquq yuklatiladi. Shu bilan birga, Oila kodeksida aliment majburiyati tushunchasiga normativ ta‘rif berilmaganligi sababli, ushbu munosabatlarni talqin etishda fuqarolik huquqiga xos majburiyat institutining umumiy qoidalarini qo‘llash imkoniyati yuzaga keladi. Bunda, O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksida bevosita tartibga solinmagan masalalar bo‘yicha, agar bu oilaviy munosabatlarning mohiyatiga zid bo‘lmasa, Fuqarolik kodeksi normalarini subsidiar tarzda qo‘llash mumkinligi alohida ahamiyat kasb etadi.

Muhokama

1990-yillargacha aliment majburiyati, odatda, shunday huquqiy munosabat sifatida talqin qilingan ediki, unga ko‘ra, oila a‘zolarining ayrimlari qonunga muvofiq ravishda boshqa oila a‘zolariga moddiy ta‘minot berishga majbur bo‘lgan, alimentlar esa qonun normalariga asosan taqdim etiladigan moddiy vositalar sifatida tushunilgan¹⁵.

¹³ Нечаева А.М. *Семейное право*. — М.: Юрист, 2008.

¹⁴ Тихомирова Л.В., Тихомиров М.Ю. *Алиментные права и обязанности членов семьи: практическое пособие* / под ред. М.Ю. Тихомирова. М.: Изд-во Тихомирова М.Ю., 2011. С. 8.

¹⁵ Иоффе О.С. *Советское гражданское право: правоотношения, связанные с продуктами творческой деятельности. Семейное право. Наследственное право: курс лекций*. Ч. 3 / О.С. Иоффе; отв. ред. А.К. Юрченко. — Л.: Изд-во Ленингр. ун-та, 1965. — С. 260–261; Пергамент А.И. *Алиментные обязательства по советскому*

Bundan tashqari, xorijiy huquqiy doktrina doirasida voyaga yetgan mehnatga layoqatli bolalarning ota-onasini ta'minlash majburiyatiga oid ilmiy nazariyalar mavjud. Jumladan quyida bir nechta nazariyalar muhokama qilinadi.

Muallifning yakuniy xulosasiga ko'ra, O'zbekiston huquqiy tizimida aliment majburiyati ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan, konstitutsiyaviy qadriyatlar bilan uzviy bog'langan, biroq shaxsiy avtonomiya va protsessual adolat tamoyillari bilan muvozanatlangan mustaqil formal-huquqiy institut sifatida rivojlantirilishi lozim. Aynan mana shu yondashuv aliment va ta'minot majburiyatlarini nazariy jihatdan to'g'ri talqin qilish, sud amaliyotini izchil rivojlantirish hamda milliy oilaviy qonunchilikni takomillashtirish uchun mustahkam konseptual asos bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Otaxo'jayev F.M., Yuldasheva Sh.R. Oila huquqi . Toshkent 2013. 147 b
2. Djumagazieva G.S.” ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ЗАЩИТЫ ПРАВ И ИНТЕРЕСОВ СТОРОН В АЛИМЕНТНЫХ ОБЯЗАТЕЛЬСТВАХ” // ВОПРОСЫ ЧАСТНОПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ// DOI: <https://doi.org/10.15688/lc.jvolsu.2020.4.15> 118 b
3. Нечаева А.М. *Семейное право*. — М.: Юрист, 2008.
4. Тихомирова Л.В., Тихомиров М.Ю. Алиментные права и обязанности членов семьи: практическое пособие / под ред. М.Ю. Тихомирова. М.: Изд-во Тихомирова М.Ю., 2011. С. 8.
5. Иоффе О.С. Советское гражданское право: правоотношения, связанные с продуктами творческой деятельности. Семейное право. Наследственное право: курс лекций. Ч. 3 / О.С. Иоффе; отв. ред. А.К. Юрченко. — Л.: Изд-во Ленингр. ун-та, 1965. — С. 260–261; Пергамент А.И. Алиментные обязательства по советскому праву / А.И. Пергамент. — М.: Госюриздат, 1951. — С. 6; Рабец А.М. Алиментные обязательства между супругами / А.М. Рабец. — Томск: Изд-во Томского ун-та, 1974. — С. 3.